



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

ONALIKNI QO'LLAB- QUVVATLASH SIYOSATI

Toshkent-2024

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining
“Onalikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi, Oila kodeksi, “Ta'lif to'g'risida”gi qonun, “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonun hamda boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida (*keyingi o'rinnlarda – Universitet / JIDU*) ayol xodimlar va talabalarning onalik huquqlarini ta'minlash, qo'llab-quvvatlash hamda ularning ta'lif va mehnat jarayonlarini qulay tashkil etish mexanizmlarini belgilaydi.

1.2. Nizom O'zbekiston Respublikasining gender tenglik siyosati hamda JIDUNing ichki hujjatlariga asoslanadi.

Universitetda onalikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qulay sharoitlar yaratish va samarali tizim yo'lga qo'yish maqsad qilingan. Homilador hamda farzandli ayol xodimlar va talabalarga o'z farzandlariga g'amxo'rlik qilish bilan birga, dars mashg'ulotlaridan uzilib qolmaslik imkoniyati yaratiladi.

II. Nizom maqsadlari

2.1. Universitet quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- turmush darajasini va bandlik imkoniyatlarini ta'minlaydigan tegishli iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- yaqinda ona bo'lgan hodimlar, ilmiy izlanuvchilar yoki talabalar uchun ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- ijtimoiy xizmatlar va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- farzandli ayollarga turli turdagи ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;
- xotin-qizlarning ta'lif huquqlarini himoya qilish;
- homiladorlik va onalikdan qat'i nazar, kasbiy va akademik faoliyatda teng imkoniyatlarni ta'minlash;
- onalikni mehnat va ta'lif faoliyati bilan uyg'unlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratish;

– professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar orasida onalarning jismoniy va ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash.

III. Asosiy prinsiplari

3.1. Jinsi, homiladorligi yoki oilaviy holati asosida kamsitishga yo'l qo'ymaslik.

3.2. Onalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

3.3. Tug'ruqdan keyin kasbiy va o'quv faoliyatini davom ettirishga ko'maklashish.

3.4. Homiladorlik va onalik bilan bog'liq shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash.

3.5. Ayollarning ish joyi yoki ta'lim jarayonida onalik bilan bog'liq sharoitlarga moslashtirilgan yondashuvni ta'minlash.

IV. O'qituvchilar, xodimlar va talabalar uchun onalikni qo'llab-quvvatlash

4.1. Homilador xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

– O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq homiladorlik va tug'ruq ta'tilini olish;

– dekret ta'tili davrida mehnat shartnomasini uzaytirish;

– rahbariyat bilan kelishilgan holda moslashuvchan ish jadvali yoki masofaviy ish imkoniyati;

– ta'tildan keyin avvalgi yoki teng lavozimga qaytish imkoniyati;

– bolali ayollarga alohida mehnat sharoitlari yaratish.

4.2. Ish beruvchiga homiladorlik yoki bola parvarishi ta'tili sababli ayolni ishdan bo'shatish taqiqlanadi.

4.3. Homilador yoki 3 yoshgacha farzandi bor talabalar quyidagi huquqlarga ega:

– tibbiy ko'rsatmalar asosida akademik ta'til olish;

– individual o'quv jadvali asosida o'qish;

– psixologik yordam va maslahatlar olish;

– O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq ijtimoiy himoya va moddiy yordam olish.

4.4. Onalikdan qat'i nazar, ta'lim imkoniyatlariga teng kirishish ta'minlanadi.

V. Infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash

5.1. Universitet quyidagi shart-sharoitlarni yaratadi:

- ona va bola xonalari mavjudligi;
- aravachali ayollar uchun panduslar va qulay muhit;
- tadbirlar vaqtida onalar ishtirokini ta'minlash uchun bolalar vaqtincha qoladigan joylar mavjudligi;
- bolalar uchun vaqtinchalik parvarish markazlari tashkil etish va maxsus ona-bola xonalari gigiyenik talablar asosida jihozlanishi nazarda tutiladi.

VI. Mas'uliyat va ijro

6.1. Ushbu Nizomni amalga oshirish bo'yicha nazorat JIDU kadrlar bo'limi, kasaba uyushmasi qo'mitasi, Xotin-qizlar maslahat kengashi, dekanatlar va boshqa ma'muriy organlarga yuklatiladi.

6.2. Onalik bilan bog'liq huquq buzilish holatlari mehnat va ta'lim qonunchiligi asosida individual tarzda ko'rib chiqiladi. Universitetda anonim murojaatlar tizimi joriy etilib, ayollarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha maxsus monitoring guruhi tashkil etiladi.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish JIDU rahbariyati, kasaba uyushma yoki xodimlar va talabalar taklifiga asosan kiritiladi.

7.2. Mazkur Nizom JIDU rahbariyati tomonidan tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.